

**ARCHITECTURE DURING THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TIMURIDS
(IN THE EXAMPLE OF ZANGI OTA)****АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ (В
СЛУЧАЕ ЗАНГИ АТА)****AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK (ZANGI OTA
MISOLIDA).**

*O`zMU Tarix fakulteti Arxeologiya yo`nalishi 1-kurs talabasi
Qurbonaliyeva Kamola Shuxrat qizi*

Annotatsiya: *Amir Temur temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat yuksak darajaga chiqdi. Ayniqsa qurilish sohasida ko'plab yutuqlarga erishdi. Binolarning qurilishgida yangi naqsh uslublari paydo bo'ldi. Aytishlaricha, Amir Temur har bir g'alabali yurishdan so'ng albatta shu hududda bir me'moriy obida bino qilib ketar ekan. Ba'zi manbalarda keltirilishida Amir Temur qo'shinidagi otlarining bir tomoniga qum, ikkinchi tomoniga esa peshtoqqa qo'yilishi uchun naqshli bezak olib yurar ekan. Bu Temur o'z qudratiga shunchalar ishonganini anglatar edi. Qurilish ishlari Temurning avlodlari davrida ham keng yoyildi ayniqsa, Ulug'bek mirzo davrida keng yoyildi. U ham bir nechta hududlarda madrasalar qurdirgan.*

Kalit so'zlar: *Zangi ota, Ahmad Yassaviy, maqbara, madrasa, masjid, ziyoratxona, go'rxona, me'morchilik, naqshlar, Samarqand, Toshkent.*

Аннотация: *В период правления Амира Темура наука и культура достигли высокого уровня. Он добился многих достижений особенно в области строительства. В строительстве зданий появились новые стили узоров. Говорят, что после каждого победоносного похода Амира Темура строил в этой местности архитектурный памятник. По некоторым данным, Амир Темура с одной стороны ушей коня нес песок. А с другой- узорчатый орнамент, который нужно было надеть на шкуру. Это означало, что Темура так сильно верил в свою силу. Строительные работы были широко распространены во времена Темура, особенно во времена правления Мирзо Улугбека. Он также построил медресе в нескольких районах.*

Ключи слова: *Занги Ата, Ахмад Яссави, мавлозей, медресе, мечеть, святыня, гробница, архитектура, узоры, Самарканд, Ташкент.*

Abstract : *During the period of Amir Temur, science and culture reached a high level. He made many achievements, especially in the field of construction. New pattern style appeared in the construction of buildings It is said that after every victorious campaign, Amir Temur built an architectural monument in this area. According to some sources, Amir Temur used to carry an ornament on one side of his horse's ear, and on the other side, a patterned decoation to be placed on the peshtok. This meant that Temur believed in his power so much.*

Construction works were widespread during the generations of Temur, especially during the reign of Ulugbek Mirza. He also built madrasahs in several areas.

Keywords: *Zangi ata, Ahmad Yassavi, mausoleum, madrasa, masjid, shrine, cave, architecture, patterns, Samarkand, Toshkent.*

Temuriylar davri me'morchiligi. Temuriylar davrini baʼzan “Temuriylar renessansi” deb ham atashadi. Oʻrta osiyo zaminida ilm-fan, sheʼriyat, sanʼat rivojida atrof borliqqa nisbatan kuchli qiziqish aks etdi. Temur uchun uning topshirigʻiga koʻra barpo etilgan inshootlarning ulugʻvorligi siyosiy sohadagi vazifalaridan biri edi. U Oqsaroy peshtoqiga bitilgan “Quadratimizni bilmoq istasang – binolarimizga boq” degan yozuvda aniq ifodasini topgan. Amir Temur hukmronligi davrida koʻplab inshootlar qurdirgan boʻlib, ular quyidagilardan iborat: masjid, xonaqoh, madrasa, maqbara, tim, bozor va hokazolar.

Masjidlar-musulmonlarning ibodat qilishlari uchun mahsus qurilgan bino, inshoot hisoblanadi. Temuriylar davrida har bir shaharda masjidlar qurilgan. Bu davrda Samarqandning shimolida, Ohanin darvozasi yaqinida Samarqand jome masjidi qurilgan. Masjid sahni toʻrtburchak, burchaklarida baland minoralar boʻlgan. Kiraverishda keng ravoqli, mahobatli peshtoq va ikki yonida ulugʻvor minoralar bor. Masjidning keng hovlisida peshayvonlar bilan ular oraligʻidagi Ravoqlar va gumbazchalarni toʻrt yuzdan ziyod marmar ustunlar bezab turadi. Masjid ichkarisida arab tilida turli kalomlar va rasmlar tushirilgan edi. Tasvirlarning ranglari oʻziga xos boʻlib shakli esa islamiy va handasaviy shakllar edi.

Madrasa-oliy diniy oʻquv yurti hisoblanib bu yerda asosan diniy va dunyoviy bilimlar berib borilgan. Temur davrida Samarqandda atigi ikkita madrasa qurilgan edi. Ikkovi ham moʻjazzgina boʻlib sulolaviy dahmalar bilan bogʻliq. Bular Goʻri Amir va Saroy Mulk xonim madrasalari edi. Ulugʻbek va Shoxrux davrida esa madrasalar soni avvalgiga qaraganda ancha oshdi. Biroq agar Hirotidagi Gavharshodbegim madrasasi va uning tarkibiga kiruvchi hirotlik temuriylar maqbarasi mashhur boʻlsa, Shohruh uchun madrasa yaʼni ilm maskani birinchi oʻrinda turar edi. Uning topshirigʻiga binoan Buxoroda, Samarqandda va Gʻijduvonda madrasalar qurildi.¹

Maqbara- hukmdor xonadoni aʼzolaridan biri yoki boʻlmasa mashhur diniy arboblarning qabri ustiga quriladigan meʼmoriy obida. Samarqandda Temur davrida qurilgan eng mashhur maqbaralardan biri bu Ruhobod va Goʻri Amir maqbaralaridir. Ulugʻbek davrida esa nafaqat Samarqand balki temuriylar saltanatining boshqa shaharlari Buxoro, Gʻijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham meʼmoriy sanʼatning noyob obidalari barpo etildi. Ammo qurilish miqyosida Samarqandga yetadigani yoʻq edi.

Temuriylar davri san`ati shunchalik mashhur ediki, hatto chet el tarixchilari ham alohida e`tibor qaratgan. Masalan, ispan tarixchisi Klavixoni bu davr me`moriy obidalarining shakli, balandligi va bezagiga alohida e`tibor bergan va bunga to`xtalib o`tgan. u yana arqonlar tortilgan qizil baxmal va matolar yopilgan chodirlarni ham eslab o`tadi. Chodirlarning birida parvozga shaylangan burgut va uchayotgan lochinning zarhal haykalchalari alohida ahamiyatga ega.

Zangi ota yodgorligi. Temuriylar davrida Toshkent hududida qurilishi boshlangan eng mashhur me`moriy obidalardan biri Zangi ota majmuasi haqida to`xtalib o`tsak. Bu majmua hozirgi Toshkent shahridan 20km uzoqlikda joylashgan. Maqbaraning qurilishi haqida xalq orasida turli rivoyatlar uchraydi. Rivoyat qilishlaricha, Amir Temur Ahmad Yassaviyga atab maqbara qurishni boshlaydi. Lekin qurilish yaxshi davom etmaydi ya`ni maqbara devorlari qurilib bo`lmasdan nurab tushaveradi. Buning sababini kunlarning birida Ahmad Yassaviy Amir Temurning tushiga kirib shunday deydi: “Bu maqbara menga atab emas, aksincha, sevimli shogirtim Oyxo`ja ibn Tajxo`jaga atab qurilishi kerak. Qurilish boshlanishidan oldin esa Oyxo`janing qabrini ziyorat qilib uning nomiga duo qilishlari kerakligini aytadi”. Maqbaraning Zangi ota deb nom olishini tarixi esa quyidagicha edi: Zangi otaning asl ismi Oyxo`ja ibn Tajxo`ja avliyo Arslonbobo avlodlariga borib taqaladi. Zangi otaning otalarini ismi Tojxo`ja onasi esa Gavhar deb nomlangan. Oyxo`janing tug`ilgan yili haqida aniq manbalar mavjud emas ammo 1168-1258-yillarda yashagan deb taxmin qilinadi. Bu shaxs mintaqah orasidan arablardan kelib chiqqanligi va qora terisi sababli Zangi nomi bilan mashhur edi. U 3 yoshidan boshlab otasidan ilm olishni boshlaydi, otasi vafotidan so`ng esa Ahmad Yassaviyga shogirtlikka tushadi. Yassaviy bilan bir necha bir yil birga bo`lim uning ta`limotini sirlarini o`rganadi va ushbu tariqatning yorqin vakillaridan biri bo`ladi. Zangi otaning butun hayoti Movarounnahr xalqi uchun qiyin va daxshatli davrga to`g`ri keldi. Chunki bu davrda mo`g`ul bosqinchilari yurtni talagan, aholini qul qilib olgan edi. Muridlar va Zang iota shogirtlari, ayniqsa Sayyid ota, Sadr ota kabilar Dashti qipchoq o`zbeklari, Volga bo`yi tatarlari orasida islom dini tarqalishida hissalar katta edi. U o`z hayotini oddiylikda o`tkazdi ya`ni u Movarounnahr aholisining suruvlariga cho`ponlik bilan mashg`ul bo`ldi.²

XIV asrda Amir Temur tomonidan qurilgan bino majmuaning 1-qismi edi. Zangi Ota majmuasining qurilishi juda ko`p vaqt davom etdi ya`ni XX asrning boshlariga qadar davom etdi. Me`moriy ansablning janubi – g`arbida qismida Namozgoh masjida joylashgan. U XIX asrning yarmida mahalliy kadius sudyasi tomonidan qurilgan va hali ham yuzlab imonlilarni qabul qialdi. XV asrning boshlarida Mirzo Ulug`bek boshchiligida maqbara, maqbaraga kirish qismida sopol bezaklar va Arab trikotajlari bilan bezatilgan Portal qurildi. Komleksning Markaziy sharafi, Zangi ota ko`p toshli maqbarasi. Uning ichida Amir Temur davridan beri nafis san`at o`ymakaorligi bilan qoplangan tosh qabr toshi saqlanib qolgan. Janubiy kirish joyi yaqinida Zangining

rafiqasi oya, Anbar Bibi va uning qaynonasi Ulug`poshshoning qadimiy qabristoni va maqbarasi joylashgan.

Zangi ota maqbarasi dastlab ikki xonali soda imorat- ziyoratxona va go`rxona iborat bo`lib, peshtoq va bezaklari bo`lmagan. Xonalarning devori ravoqli chorsi asosdan burchaklardagi ravoqli bag`al gumbaz bilan bog`langan. Hosil bo`lgan sakkiz qirrasli asos ustiga o`rnatilgan gumbazlarning kattaligi har xil. Xonalarga darcha va tobdonlar orqali yorug`lik tushgan. Go`rxonadagi oq marmardan ishlangan qabrtosh, ayniqsa, diqqatni tortadi. Toshga g`oyatda mohirlik bilan nafis o`yma naqsh va arabiy xatlar bitilgan. Qabr shakli va naqshlardagi uslub uning qadimiyligidan dalolat beradi. Yon tomonidagi yuza qismida arab tilida quyidagi mazmundagi she`r bitilgan edi: “Biz sog`lik va sayohatdan zavqlanamiz. Ammo vaqt kelib bir-birimizdan ayrilamiz. Chunki vaqt seviklilarni ayiruvchidir”.

Marmar bitiktoshning bir yon qirrasiga kufiy vas uls xatida Payg`ambarimizning: “Qabr amallar sandig`idir”, degan hadislar bitilgan. Vaqtlar o`tib maqbara oldiga peshtoq va ikkkita ko`ndalang xona qurilib, bezak berilgan. Peshtoq va xonalar tashqi devori, ziyoratxona va maqbara poygumbazi sayqallangan g`ishtlar, o`ymakor rang – barang koshinlar bilan bezatilgan.

Zangi ota maqbarasining yana bir noyob va o`ziga xos jihatiga to`xtalish mumkin. O`sha davr me`morchiligida peshtoqni imoratning yon qanotlaridan oldinga surib qurish odat tusiga kirganini yurtimizdagi har qanday me`moriy obida misolida ko`rishimiz mumkin. Zangi ota maqbarasining peshtoqi esa ikka yonidagi xona devorlari bilan bir chiziqda qurilgan, ya`ni shu devor larning davomi bo`lib tushgan. Bundan tashqari, imoratning sirtidagi izoralar peshtoq ayvonidagi supalar bilan bir balandlikda qilib ishlangan. Bu maqbaraning bezaklarida asosan islmiy va geometrik naqshlardan foydalanilgan. Bu esa temuriylar davridagi me`morlar noziklikka e`tibor qaratganidan dalolat beradi.

Xulosa. Amir Temur va Temuriylar o`zlaridan boy moddiy meros qoldirganlar. Buni ular davrida qurilgan me`moriy obidalar misolida ko`rishimiz mumkin. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan inshootlar orasida Toshkent viloyatida joylashgan Zangi ota majmuasi alohida ahamiyatga ega. Bu me`moriy obidada mustaqillik yillarida qayta tiklash-ta`mirlash ishlari olib borildi va qayta ta`mirlandi. Qayta ta`mirlash ishlari nafaqat Zangi ota majmuasida , balki yurtimizda har bir hududdagi inshootlarda olib borildi. Temuriylar davrida qurilgan barcha inshootlar o`zining hashamati va go`zalligi bilan har qanday insonni o`ziga maftun etadi. Bu narsa Temur va Temuriylar davrini siz va bizning qalbimizda o`z ajdodlarimiz bilan g`ururlanish va faxrlanish xis-tuyg`usini beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqarov.A “Temur va Ulug’bek davri tarixi” Toshkent-Qomuslar bosh tahririyati 175-180 betlar.
2. Ahmedov.B “Amir Temur saboqlari 2” G’ofur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti Tosjkent-1999.
3. Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. “xalq so’zi” gazetasi, aprel, 2021.